

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



«VASIDIQLAYMAN»
Buxoro davlat universiteti

O.X. Xamidov

2025 yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA
60920100-IJTIMOIIY ISH YO'NALISHIGA KIRISH SINOV LARI DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

Buxoro – 2025

Tuzuvchilar:

F.D.Muzaffarov – ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası mudiri, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.R.Nafiddinova - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.B.Maxmudova - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Taqrizchilar:

E.X.Zoirov - BuxTU dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

KIRISH

Yuksak ma'naviyatli, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirishda, jamiyatda barqarorlikni qaror toptirishda ijtimoiy ish yo'nalishi muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda ijtimoiy ish sohasida talabalarda jahon sivilizatsiyasida yordam va qo'llab-quvvatlash institutlarining tarixiy shakllari, turli modellar rivojlanishining evolyutsion yo'li sohaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bu yo'nalishni chuqur o'zlashtirish orqali talaba nafaqat o'zini anglash, balki boshqa insonlarni tushunish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy munosabatlarda empatiya va bag'rikenglikni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Shu ma'noda, ijtimoiy ish yo'nalishi nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni ham shakllantiradi. Bu esa zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh, ma'naviy barkamol, o'z kasbiy faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashuvchi mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy ish yo'nalishi rivojlanishi bo'yicha chet el hamda mahalliy tajribani o'zlashtirish; ijtimoiy ishning insoniyat va jamiyat hayotidagi rolini, yordam ko'rsatish texnologiyalari hamda uslubiy asoslarini o'rganish; ijtimoiy ishda tadqiqotchilik loyihasini yozish va rasmiylashtirish; ijtimoiy ishchilarni tayyorlashda ta'limiy dastur va o'quv jarayonini tashkillashtirish uslubiyotini o'rganish; ijtimoiy ishning samaradorligi (nazariy uslubiy jihati) haqidagi bilimlarni boyitish kabi vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi.

"Ijtimoiy ish" fanini o'qitishdan maqsad - bugungi kunda ijtimoiy ish sohasida talabalarda jahon sivilizatsiyasida yordam va qo'llab-quvvatlash institutlarining tarixiy shakllari, turli modellar rivojlanishining evolyutsion yo'li haqida tizimli tasavvur shakllantirishdan hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

"Ijtimoiy ish" fanning vazifasi - fan sifatida rivojlanishi bo'yicha chet el hamda mahalliy tajribani o'zlashtirish; ijtimoiy ishning insoniyat va jamiyat hayotidagi rolini, yordam ko'rsatish texnologiyalari hamda uslubiy asoslarini o'rganish; ijtimoiy ishda tadqiqotchilik loyihasini yozish va rasmiylashtirish; ijtimoiy ishchilarni tayyorlashda ta'limiy dastur va o'quv jarayonini tashkillashtirish uslubiyotini o'rganish; ijtimoiy ishning samaradorligi (nazariy uslubiy jihati) haqidagi bilimlarni boyitish.

Ijtimoiy yordam

Ijtimoiy yordam tushunchasi. Ijtimoiy yordamning asosiy turlari. Xayriya va yordam ko'rsatish. Yordamning turlari (jamoaviy, xususiy, guruhiy, davlat

tomonidan yordam). Ijtimoiy yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari va yondashuvlari. Ijtimoiy ish rivojlanishini davrlashtirish.

Xayriya va diniy e'tiqod

Ilk sivilizatsiyalarda xayriya g'oyalarining vujudga kelishi. O'rta asrlarda jamoaviy xayriya. Xayriya va diniy e'tiqod. Iudaizm va xayr-ehson. Katolik, protestant va pravoslavlarda xayriya faoliyati. Islom dinida muruvvat amrlari.

Chet elda ijtimoiy ish asoslari

Ijtimoiy ish institutsionalizatsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy zaminlari. Tashkillashtirilgan xayriya. Ijtimoiy ishchilar maktablarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Ijtimoiy xizmat ishchilarini tayyorlash. Chet ellarda ijtimoiy ishchilarning faoliyatining amaliy sohalari. Sotsial o'zaro harakat tushunchasi. M.E.Richmondning ijtimoiy ishning rivojlanishdagi hissi.

Ijtimoiy ishchi kasbi: zamonaviy talablar

Ijtimoiy ishchining professional faoliyatining xarakteri. Chet elda ijtimoiy ishchilarni tayyorlash tizimi. Ijtimoiy ishchilarning faoliyati va bandlik sohasi. Ijtimoiy ishda supervizorlik. Ijtimoiy ish mijozlari. Ijtimoiy ishchining professional muloqotida etik standartlar. Ijtimoiy ishda etik dilemmalar va tamoyillar. Ijtimoiy ish inson huquqlari falsafasining amalga oshishi sifatida.

Yevropa mamlakatlarida aholini ijtimoiy himoyasi

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy himoya tizimlarining tamoyillari va vazifalari. Yevropa ijtimoiy ta'minot tizimi. Farovonlik jamiyati konsepsiyasi. Ijtimoiy yordam va ish, postmodernizm va zamonaviy siyosiy ideologiyalar. G'arbiy Yevropada ijtimoiy ta'minot.

AQSh aholisini ijtimoiy himoya qilish tizimi

Ijtimoiy himoyaning "amerikacha" usuli. AQSH da ijtimoiy ta'minotning asosiy shakllari. Moddiy yordam dasturlari. Kambag'allik chegarasi muhtojlik mezon. Ijtimoiy ko'mak. Ijtimoiy sug'urta dasturlari. AQSHda xususiy sug'urtalash.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimida davlat va nodavlat tashkilotlar

Aholini ijtimoiy himoya qilish davlat tashkilotlari. Xususiy ijtimoiy tashkilotlar. Ko'ngillilar tashkilotlari. Ijtimoiy xizmatlarning o'zaro hamkorligining shartnoma tizimi. Xalqaro xayriya tashkilotlari (Qutqarish Armiyasi, Xalqaro qizil xoch jamiyati va hokazo).

Ijtimoiy ishning xalqaro infrastrukturasini

Ijtimoiy ishda professionalizmni shakllantirish muammolari. Ijtimoiy ishda professionalizm: mohiyati, shakllanish omillari. Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi. Ijtimoiy xizmat maktablari xalqaro assotsiatsiyasi (IXMXA). AQSh ijtimoiy xodimlari professional assotsiatsiyasi. Professional ijtimoiy ishchilar Assotsiatsiyasi.

Teng huquqlar va teng imkoniyatlar siyosati

“Inson huquqlari” tushunchasi. Hukumatlar tomonidan inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan kafolat beruvchi xalqaro hujjatlar. Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. Ijtimoiy ishda inson huquqlariga rioya qilish. Ijtimoiy ishda asosiy asosiy intervensiyalar. AQShda gender tengligi siyosati mexanizmi. Bandlik sohasidagi tenglik. Ta’lim huquqi.

Insoniy faoliyatning turli sohalarida ijtimoiy ish

Jamoadagi ijtimoiy ishning o’ziga xos xususiyatlari. Chet el mamlakatlarida sog’liqni saqlash muassasalarida ijtimoiy ish. Zamonaviy jamiyatda oilaga ijtimoiy xizmat ko’rsatish. Zamonaviy jamiyatda oila evolyutsiyasi, bu jarayonning O’zbekistondagi xususiyatlari. Oilaning ijtimoiy himoyasi.

Zamonaviy dunyoda bolalarga ijtimoiy xizmat ko’rsatish. Bolalar parvarishi bo’yicha xizmatlar. Oiladagi zo’ravonlikdan bolalarni himoya qiluvchi tashkilotlar faoliyati. Dunyo mamlakatlarida ota-ona qarovisiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash.

Rossiyada ijtimoiy ishning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar

Rossiya tarixida ijtimoiy yordam nazariyasi va amaliyotining vujudga kelishi. Rossiyada davlat yordami tizimining shakllanishi. Rossiya tarixida jamoaviy va xususiy yordamning rivojlanishi. Aholining alohida toifalariga ijtimoiy yordam xususiyatlari. Ishsizlarga ijtimoiy yordam.

O’zbekistonda ijtimoiy ish institutsionallasuvi

Institutsionalizatsiya tushunchasi: mohiyati, tuzilishi. Milliy darajada jamiyatning ehtiyojmand guruhlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirish. Ijtimoiy ishda professionallik. Ijtimoiy ish texnologiyalari uning institutsionalizatsiya shartlaridan biri sifatida. Professional ijtimoiy xodimlar tayyorlash zamonaviy texnologiyalari.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. G'aniyeva M.X., Latipova N.M. История и теория социальной работы.- Ташкент:НУУЗ, учебное пособие 2015.-264 с.
2. Лобченко Л.Н. История социальной работы: учебное пособие / Л.Н.Лобченко.-Мурманск: МАГУ,2018.-258 с.
3. F.D.Muzaffarov, X.R.Nafiddinova. Ijtimoiy ish tarixi. Toshkent. 2023. -164 b.
4. X.R.Nafiddinova. Ijtimoiy ish tarixi. Toshkent. 2024. -176 b.

Qo'shimcha adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11 8. Mirziyoev Sh.M. 8. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga kuramiz. “O'zbekiston”, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF49-47 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 7 fevral.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston”, 2017.
4. Фирсов, М.В. История социальной работы: учебное пособие для высшей школы/ М.В.Фирсов.-Изд.2-е.-М.: Академический проект: Константа, 2007.-608с
5. Корнюшина Р.В. Зарубежный опыт социальной работы. Владивосток: Изд. Дальневосточного университета 2004.-85 с.

Elektron ta'lim resurslari.

www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal

www.lex.uz- O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

www.social work

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY MA'LUMOT OLIISH BO'YICHA KIRISH SINOVLARI BAHOLASH MEZONLARI

Ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kirish sinovlari suhbat shaklida o'tkaziladi va 4 tadan savol bo'ladi. Har bir savolning javobi eng ko'pi bilan 25 ballga baholanadi, jami 100 ball.

Abituriyentning suhbatdagi javobiga qo'yiladigan talablar	Baholash ballari
a) berilgan savolni to'liq bilsa, uning mohiyatini tushunsa, u bo'yicha ijodiy fikrlay olsa, tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, xulosa va qaror qaror qabul qilsa, o'z fikrini tg'liq, ravon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, mustaqil fikri asosida xulosalar chiqara olsa.	22-25
b) berilgan savolni yetarli darajada bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol yuzasidan tasavvurga ega bo'lsa, mustaqil mushohada yurita olsa, nazariy masalalarni amaliyot bilan bog'lay olsa, savolning nazariy va amaliy jihatlarini yetarlicha ochib bera olsa, o'z fikrini to'liq, ravon bayon qila olsa, savol mohiyatiga kreativ (ijodiy) yondashsa, xulosalar chiqara olsa.	19-21
d) berilgan savolni qisman bilsa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lsa, uning mohiyatini tushunsa, savol bo'yicha o'z fikrini bayon qila olsa, grammatik xatolarga yo'l qo'ysa, qisman xulosalar chiqarsa.	14-18
e) berilgan savolni yaxshi bilmasa, u to'g'risida qisman tasavvurga ega bo'lmasa, o'z fikrini to'liq bayon qila olmasa va umuman javob yozmaslik.	0-13

Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan mutaxassislik fani imtihon natijalari bo'yicha universitet qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o'zining ballari haqida bo'lsa qabul qilinadi, boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

